



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



NORMUROD NORQOBILOV'S CREATIVITY IN THE INTERPRETATION OF LITERARY CRITICS

Ziyoda Toshbekova

Researcher

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: criterion of artistry, artistic perspective, reality, naturalistic, flora, fauna, society, philosophical conclusion.

Received: 23.10.25

Accepted: 24.10.25

Published: 25.10.25

Abstract: This article is devoted to the study of the work of Normurod Norqobilov, the author of such collections of short stories and short stories as “Blue Lake”, “Forgotten Song”, “Face to Face”, “Yellow Flower”, “Pakhmoq”, “Arazchi Sparrow”, “White House at the Station”, “Aul oralagan Wo‘ri”, “A Stormy Day”, “Lonely Man in the Mountain”, “Black Wo‘ri”, “A Man in the Outback” and novels such as “Dashtu Dalarda”, “Qaraqayun” by literary critics. As a result, the article presents the opinions of researchers who conducted separate studies on the writer’s work in a sequential manner.

NORMUROD NORQOBILOV IJODI ADABIYOTSHUNOSLAR TALQINIDA

Ziyoda Toshbekova

JDPU tadqiqotchisi

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: badiiylik mezoni, badiiy rakurs, reallik, naturalistik, nabotot, hayvonot, jamodot, falsafiy xulosa.

Annotatsiya: Ushbu maqola “Zangori ko‘l”, “Unutilgan qo‘shiq”, “Yuzma-yuz”, “Sariq gul”, “Paxmoq”, “Arazchi chumchuq”, “Bekatsdagi oq uycha”, “Ovul oralagan bo‘ri”, “Bo‘ron qo‘pgan kun”, “Tog‘dagi yolg‘iz odam”, “Qora bo‘ri”, “Chetdagi odam” singari qissa va hikoyalar to‘plami va “Dashtu dalalarda”, “Qoraquyun” kabi romanlar muallifi Normurod Norqobilov ijodini adabiyotshunoslar tomonidan o‘rganilish masalasi tadqiqiga bag‘ishlangan. Natijada, maqolada yozuvchi ijodi bo‘yicha alohida

izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar fikr-
mulohazalar ketma-ketlikda bayon etilgan.

ТВОРЧЕСТВО НОРМУРОДА НОРҚОБИЛОВА В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЛИТЕРАТУРОВЕДОВ

Зиёда Тошбекова

Исследователь

Джизакского государственного педагогического университета

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые	слова:	критерий	Аннотация:	Статья посвящена
художественности,	художественная	изучению	литературоведами	творчества
перспектива,	реальность,	Нормуро	Норгобилова,	автора таких
натуралистичность,	флора,	сборников	рассказов и повестей,	как
общество, философский вывод.	фауна,	«Голубое озеро»,	«Забытая песня»,	«Лицом
		к лицу»,	«Желтый цветок»,	«Пушистый»,
		«Аразчи воробей»,	«Белый дом на	станции»,
		«Аул оралаган Воър»,	«Бурный	день»,
		«Одинокый человек в горе»,	«Черный Воър»,	«Человек в глубинке»,
		а также романов	«Дашту Даларда»,	«Каракуйун». В результате в статье
		последовательно представлены мнения	исследователей, проводивших отдельные	исследования творчества писателя.

Kirish. Badiiy adabiyot inson hayotining juda keng manzaralarini, inson qalbi va ruhiyatidagi, tafakkuridagi evrilishlar hamda o'zgarishlarni obrazlar vositasida namoyon qiladi. Bunda ijod ahli voqea-hodisalarni, insonlar ko'nglidan kechadigan his-tuyg'ularni badiiylik mezonlari asosida talqin qiladi ekan, hech ikkilanmay "Zangori ko'l", "Unutilgan qo'shiq", "Yuzma-yuz", "Sariq gul", "Paxmoq", "Arazchi chumchuq", "Bekatladi oq uycha", "Ovul oralagan bo'ri", "Bo'ron qo'pgan kun", "Tog'dagi yolg'iz odam", "Qora bo'ri", "Chetdagi odam" singari qissa va hikoyalar to'plami va "Dashtu dalalarda", "Qoraquyun" kabi romanlar muallifi Normurod Norqobilov ijodini ham shu mezonlarga to'liq asoslangan deyish mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, "Shuhrat" medali sovrindori, iste'dodli adib N.Norqobilov hayot yo'liga nazar tashlar ekanmiz, adib 1953 yil 7 iyunda Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanidagi Qishliq qishlog'ida tug'ilgani va 1976-1982 yillarida ToshDUning jurnalistika fakultetida o'qigani, uni hayotida katta burilish yasallishiga sabab bo'lgan, deyish mumkin. Bunga uni go'zal tabiat, daladan tortib, tog'u toshlar orasida o'sib kamolga topgani, uni tabiat bilan oshno bo'lishiga sabab bo'lsa, adabiyot olamiga kirishiga badiiyat yaqin bo'lgan jurnalistika sohasida o'qigani asos, deb o'ylaymiz.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki adib ijodi doimo adabiyotshunoslar diqqatini o'ziga tortib kelgan, natijada Normurod Norqobilov yozgan asarlarining badiiy xususiyatlari haqida bir qator ijobiy fikrlar alohida qayd etilgan.

Natijalar va muhokama. Jumladan, N.Norqobilov ijodi bo'yicha tadqiqot olib borgan adabiyotshunos olim adibning 1987 yilda chop qilingan ilk hikoyalar to'plami "Zangori ko'l"dan, 2018 yilda nashr yuzini ko'rgan "Chetdagi odam" gacha davom etgan hikoyanavislik yo'lini o'rganar ekan, yozuvchining inson va tabiat mavzusida yozilgan hikoyalarini quyidagicha tasniflaydi: "1) markazida inson turuvchi tabiatga oid hikoyalar ("Kapalak", "Bo'taloq", "Qashqa", "Uloqchalar", "Vahima", "Qo'shiq yoki Mung", "Qizcha", "Chol va bola" va h.k.); 2) tabiatga xos biron o'zgarish yoki hodisa haqidagi hikoyalar ("Quyosh tutilgan kun", "Buloq", "Enatepa", "Keksa tut" va h.k.); 3) bevosita nabotot, jamodot, hayvonot haqidagi hikoyalar ("Oq bo'yin", "Do'ngkalla", "Arazchi chumchuq", "Qora bo'ri", "Yetim qolgan gullar" va h.k.) .

O'z avlodi vakillari orasida nufuzli o'rin egallaydigan, inson va tabiat muammosini turli badiiy rakurslarda tasvirlab kelayotgan yozuvchi Normurod Norqobilov asarlarida ko'p ijodkorlarning e'tiboriga tushmagan, real, naturalistik, shu bilan birgalikda, nabotot, hayvonot, jamodotga xos teran falsafa ohanglariga guvoh bo'lamiz. Mag'zida inson va tabiat muammosi aks etgan bunday falsafiy xulosalar yozuvchining deyarli barcha hikoyalarida aks etgan. N. Norqobilov ijodi uchun xarakterli bo'lgan bunday jihatlar uning xalq ijodiyoti, qishloqlarimiz odamlari turmush tarzi, Vatanimiz tabiati, qolaversa, jahon adabiyotining L.Tolstoy, J.London, Ch. Aytmatov, S. Tompson ijodiy an'alarini chuqur bilishi bilan bog'liq" ligida degan xulosa beradi.

N.Norqobilov inson va tabiat munosabatlari aks etgan qissalarining aksariyati hayvonot olami bilan bog'liq. Yozuvchi ba'zi boshqa bir qahramonlar yoki ijtimoiy, maishiy mavzudagi qissabop voqealar haqida yozganda ham syujet va qahramon tubiga chuqurroq kirib borish maqsadida tabiat, jamodot, hayvonot olamidun unumli foydalanadi. Inson obrazini ochishda tabiat elementlari yetakchiligi kuzatiladi. Yozuvchi qissalari qahramonlarining shahar va sivilizatsiyaga yaqin qishloq odamlaridan farqli "ekologik toza" hayot tarzi, tabiatga yaqin fe'l-atvori, ona zamin, tog'u toshlar, o'rmonu o'tloqlar, daryo va ko'llarga o'zgacha munosabati aks etgan manzaralari "Qoyalar ham yig'laydi", "Tog'dagi yolg'iz odam", "Tog' odami", "Adadsiz azob" asarlarining mazmunini tashkil etadi. Mazkur qissalar orasida axloqiy-falsafiy xususiyatlarni umumlashtirishiga ko'ra "Tog' odami" asari alohida ajralib turadi. "Qorabo'ri" qissasining syujet markazida o'ziga xos fe'l-atvori, fiziologik tuzilishi noyob bir jondor – Qorabo'ri obrazi tasvirlanadi. Ushbu obraz va u bilan bog'liq voqealarning badiiy tasviri asar markazidan qizil ip bo'lib o'tadi. "Tabiat yo'rig'i"ga amal qilmagan inson kabi, bu yo'riqni buzgan jonivor ham ona

tabiat tomonidan ayovsiz jazolanishi haqidagi badiiy-falsafiy konsepsiyani yozuvchi Qorabo'ri qismati misolida badiiy asoslaydi, - deydi adabiyotshunos olim o'z tadqiqotida.

Iste'dodli adib N.Norqobilovning badiiy asarlarida ilgari surilgan tushunchalar majmuasida inson va tabiat, olam va odamning birligi talqin etilgan. Ularda turli obrazlar orqali, shaxs va jamiyat, inson va nabobot olami o'rtasidagi uzviylik asosida, inson tafakkuridagi evrilishlar o'z ifodasini topgan. Adib "Dashtu dalalarda" romanida makon va zamon muammosi ichki qarama-qarshilik, hayotiy voqealar silsilasida yanada teranroq reallashadi. "Dashtu dalalarda" romanida deb yozadi, adabiyotshunos olim Shohsanam Davronova, tabiat va inson munosabati masalasini ma'naviy muammolar bilan uyg'unlikda tasvirlash an'anasi namoyon bo'ladi. Adib asarlarida ustoz adiblar ijodiy yo'lida yuz ko'rsatgan mahorat qirralari tabiat bilan birgalikda ochiladi. Milliy zaminda turgan badiiy qahramon ayni paytda yozuvchining umuminsoniy va gumanistik qarashlarini tabiatga munosabati orqali yuzaga chiqaradi".

Darhaqiqat, asosli ta'kidlanganidek, inson va tabiat birligi epik maydonda, inson botinidagi evrilishlar asosida talqin etilganligini jahon adabiyotida Ernes Seton Tomson, Chingiz Aytmatov kabi bir qator iste'dodli ijodkorlarning badiiy asarlarida kuzatamiz. Ayniqsa, Chingiz Aytmatov asarlarida Shoxdor ona bug'u, Qora nor, Akbara, Toshchaynar kabi hayvonlarning obrazlari insoniyat dunyosini aks ettirish, tabiatni himoya qilish va avrab asrash borasidagi g'oyalarni tashishga xizmat qiladi. Bunday tasviriy uslub qaysidir ma'noda dunyo adiblari ijodiga, shu jumladan, o'zbek adiblariga ham qaysidir ma'noda o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu masalada professor Yo'ldosh Solijonov: "Chingiz Aytmatov asarlarida ifodalangan g'oyaviy fikrlar, inson va jamiyat, inson va tabiat, inson va hayvonot olami, inson va din, muhabbat va nafrat, ezgulik va yovuzlik singari umumbashariy muammolar, uni ifodalashga xizmat qiladigan obrazlar galereyasi, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ziddiyatlar tasviri o'zbek ijodkorlari asarlarida ham muhim o'rin egallayotgani quvonarlidir", deb o'rinli ta'kidlaydi va fikriga misol o'laroq bir qancha o'zbek adiblari qatorida Normurod Norqobilovni ham sanab o'tadi. Adib asarlarida ham milliy o'zlikni anglash ifodasi epik maydonda o'z ifodasini topganligini alohida qayd etish lozim: "Bir qarashda, bo'rilar uchun bu dashtda emish qahat emasdek tuyuladi. Masalan, shundoqqina yonlarida To'lanboyning podasi. Qish-qirovli kunlar boshlangunga qadar kechayu kunduz dashtda yoyilib yuradi. Ammo bo'ri zoti ini joylashgan hudud tasarrufiga kiruvchi erdagi jonliqqa tegmaydi. Zero, ularning tinchligi ham shunga bog'liq". Inson va tabiat, inson va nabobot olami azaldan dialektik birlikda hayot kechirib keldi. Ammo o'tgan asrning oltmishinchi yillaridan boshlab bu an'analar ma'lum darajada unutila boshlandi. Inson o'zi anglamagan holda tabiat va uning mo'jizalari oldida "lol" qolishga majbur bo'ldi. Ezgulik, adolat, haqiqat o'rnini yovuzlik, vahshiylik, inson xarakteridagi shafqatsizlik egallay boshladi. Bu kabi muhim xususiyatlar adibning "Dashtu dalalarda" romani qahramonlari bo'lgan To'lanboy, Ro'ziqul, Haydar obrazlarida yaqqol

kuzatiladi. Romanda olamning go‘zalligi, insoniyatning shu go‘zallikka munosabatini, gumanizm mohiyati va qadr-qimmatini butun ijodi badiiy to‘qimalariga yoyilib ketgan milliy ma’naviyat ifodasiga singdiriladi. Odamzodning ruhiy barkamolligi, ezgu maqsadi haqida falsafiy teran tasvir yo‘nalishi adib dunyoqarashi va badiiy tasavvuri kengligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham ijodkorning har bir asarida xoh u kichik janr bo‘lsin, xoh yirik hajmli badiiy polotno bo‘lsin, adolat, haqiqat, mehr-shafqat, ezgulik kabi tushunchalar talqini asosiy o‘rinni egallaydi.

Adib asarlarida doimo o‘z davrining ilg‘or ma’naviy-axloqiy intilishlarining talqini etakchilik qiladi. Chunki ijodkor nuqtayi nazarida jamiyatning ana shu muammolari poetik mushohada va muhokamasida teran estetik qiymat kasb etadi. Yozuvchi poetik izlanishlarining mag‘zini inson borlig‘ini ijtimoiy-psixologik takomilda tasvirlash, talqin etish tashkil etadi. Romanda ifodalangan ma’no-mohiyat xalqimiz an‘analari, urf-odatlari zahiriga singdiriladiki, bu esa murakkab xarakterga ega bo‘lgan insonni anglash murakkabligini namoyon etadi. Poetik talqinda mujassamlashgan muallif konsepsiyasi qahramon ruhiyati va botiniy olamini oydinlashtiradi, etakchi obraz dinamik tadriji tasavvur chiziqlarini markazlashtiradi, tasvir tamoyillaridagi o‘ziga xos talqinlar esa epik maydondagi falsafiy teranliklarini badiiy umumlashtirishga zamin tayyorlaydi.

Roman epik borlig‘ida To‘lanboy obrazi va uning hayot tarzi, kechinma va iztiroblari tasviri siymosi etakchilik qiladi. Ijtimoiy-psixologik ziddiyatlarni birlashtirib turadigan badiiy qahramonda mujassamlashgan xotira, mulohaza, uning faoliyati davomida turg‘unlik davrining umumlashma tipini namoyon etadi. To‘lanboyning hayoti, o‘z dardu dunyosiga ega inson ekani, indiviudal xarakteri voqealar rivojida ko‘rina boradi. Adib bu obrazni turli qarama-qarshiliklardan iborat hayot fonida tasvirlar ekan, o‘zligini angelayotgan, ba‘zan buni unutishi fojiaiy kayfiyat uyg‘otishini teran ruhiy-psixologik tasvirlar bilan bayon qiladi: “To‘lanboy jonivorning yag‘rin tuklari biqin yunglariga nisbatan dag‘altobligini go‘yo endi payqaganday, panjalarini goh ohista, goh tezroq harakatlantirishda davom etarkan, birdan tulki mo‘ynasining o‘ziga hech keragi yo‘qligini fahmlab qoldi. Biroq bundan uning tuklari to‘kilgan yaroq telpak ostidagi so‘poq boshiga Qoraquloqni ozodlikka qo‘yib yuborish fikri kelmadi” . To‘lanboy xarakteriga qanchonlardir o‘rnashib qolgan alamdanda paydo bo‘lgan bunday yovuzlik asta-sekinlik bilan ezgulik o‘rmini egallay boshlaydi. Uning bolaligidagi nabotot olamiga bo‘lgan muhabbati yo‘qolib boradi. Tasvirdagi aniqlik esa aynan kichikdan kattaga, xususiy hodisalardan hayotiy umumlashmalarga intilishga moyillikning kuchliligi bilan izohlanadi. O‘z navbatida yozuvchi g‘oyaviy munosabati xalq ruhiyati, millat istiqbolini atroflicha tahlil etishga harakat qiladi. Bu munosabat insoniyat kelajagiga ishonch bilan qarash, uni idrok etish va tushunish nuqtai nazaridan mantiqiy izchillik kasb etadi.

Xulosa. Xullas, adabiyotshunoslar yuqorida alohida e'tirof etganidek, Normurod Norqobilov asardagi obrazlar olami davrning eng xarakterli xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Insonni anglash, o'zlikni anglash sari ilk xayoliy qarashlar, xarakterlar ruhiyatiga singdirilganligidan dalolat beradi. Buning zahirida oddiy inson taqdiri, qismati, hayot yo'li o'z ifodasini topgan. Romandagi oddiy inson qismatining poetik tasviri muayyan tarixiy zamonning murakkab jihatlari haqidagi umumlashma xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ashurov B. Zamonaviy o'zbek nasrida it obrazi poetikasi (Said Ahmad, Nurali Qobul va Normurod Norqobilov asarlari misolida: Filol.f.f.d.(PhD) disser. –Namangan, 2024;
2. Bazarov S. Normurod Norqobilov asarlarining poetikasi: Filol.f.f.d.(PhD) disser. – Jizzax, 2021;
3. Davronova Sh. Istiqlol davri o'zbek romanchiligi va sharq adabiyoti. – Toshkent, “Navro‘z” nashriyoti, 2019.
4. Yo‘ldosh Solijonov. Mushtaraklik, hamohanglik, o‘ziga xoslik. Chingiz Aytmatov va O‘zbekiston. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018.
5. Norqobilov N. Dashtu dalalarda. Roman. – Toshkent.: O‘zbekiston nashriyoti, 2009.
6. Rasulov A. Shaydolik / Norqobilov N. Bo‘ron qo‘pgan kun: Qissa va hikoyalar.– Toshkent.: Sharq, 2007.
7. Fayzullaev X. Normurod Norqobilov nasrida inson va tabiat muammosining poetik talqini: Filol.f.f.d.(PhD) disser. – Qarshi, 2021;